

SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA MUSIQIY-TARBIYAVIY VA MUSIQIY- TA'LIMIY VAZIFALARNING UYG'UNLIGI

***I. Qudratov (SamDU dotsenti),
A. Muminov (SamDU magistranti)***

Maqolada maktablarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirgan holda olib borish o'quvchilarni yanda fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish haqida fikr yuritilgan

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan musiqiy badiiy havaskorlik to'garaklarida o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishning maqsad va vazifalari yurtimizda barkamol avlodni kamol toptirishga yunaltirilgan ijtimoiy buyurtmaning talablaridan kelib chiqadi.

Barkamol avlodni tarbiyalash tarbiya turlarining mushtarakligi, izchilligi, ta'lim va tarbiyaning birligi tamoillariga tayangan holda kechadi. Umumta'lim maktablaridagi badiiy estetik tarbiya musiqa darslari va sinfdan tashqari musiqiy badiiy to'garaklar o'z oldiga:

- O'quvchilarni musiqaga muhabbat va qiziqishlarini o'stirish;
- Musiqani tushunish, his etish, ongli idrok etishga o'rgatish;
- Bolalarda musiqani emotsional his etish, musiqiy badiiy didini shakllantirish;
- Dastlabki musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish;
- Musiqiy asarlarni tinglash, o'rganish, kuylash orqali ularni ijrochilik turlarini, janri, xarakteri, g'oyaviy-badiiy mazmunini tushunish, farqlash, unga o'z munosabatini bildirish olish malakalarini shakllantirish;
- O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish kabi muhim vazifalarni qo'yadi.

Musiqiy estetik tarbiya oldiga qo'yilgan mazkur talablar ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida musiqiy-tarbiyaviy va musiqiy ta'limiy maqsad va vazifalar mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda bajarilishini, sinfdan tashqari faoliyatda esa o'quvchilarning darsda olgan musiqiy-nazariy bilimlarini mustahkamlash, amalda qo'llay olish, musiqa san'atining biror turi bilan (o'z qiziqishiga ko'ra) mustaqil shug'ullanish, maxsus bilm va amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini egallashlarini taqozo etadi.

Umumta'lim maktablarida faoliyat yurituvchi musiqiy badiiy havaskorlik to'garaklariga qatnashuvchi o'quvchi yoshlarni katta qismini cholg'u ansambllari yo'nalishidagi xavaskorlar tashkil etadi.

Cholg'u asboblari turlari bo'yicha badiiy xavaskorlik to'garaklari yaxlit ta'limiy va tarbiyaviy jarayon sifatida qarab, hozirgi kundagi musiqiy-estetik tarbiyaning ta'kidlab o'tilgan maqsad va vazifalari, maktab tizimining muayyan

ta'limiy va tarbiyaviy hususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uning mazmunini quydagicha izohlash mumkin:

- Cholg'u asboblari to'garagining vazifasi faqatgina muayyan cholg'u asbobini chalishni o'rgatish bilan cheklanmaydi. Rahbar o'qituvchi qatnashchilarda musiqa san'atiga, tanlagan cholg'u asbobida turli mavzu, mazmun va janrlardagi asarlarni o'rganish, mahorat bilan ijro etish, o'z iqtidorini ko'pchilik oldida namoyish qilish va ijrochilik mahoratini muttasil oshirib borishga qiziqish va muhabbat uyg'otishi, ularni musiqiy qobilyatini to'g'ri yo'naltira bilishi, rivojlantirib borishi, musiqa asarlarini g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqur idrok qilishi va ularni ijod maxsuli sifatida mustaqil baholay olishlariga erishish lozim.
- Mashg'ulotlar jarayonida umumiy musiqiy ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik masad va vazifalarga ko'ra o'quvchilar cholg'u asboblari asarlarni notalari bo'yicha mustaqil o'rganishlari uchun yetarli darajada musiqiy-nazariy (nota savodxonligi) bilimlarni puxta o'rganib, repertuardagi asarlarni boshlang'ich nazariy tahlil qila oladigan bo'lishlari zarur.

Biz o'z tajribalarimizda cholg'u ijrochiligi ma'lumotlarida o'quvchilarga cholg'u asbobini chalishni o'rgatishda quydagi jihatlarga e'tibor qaratdik: musiqiy bilimlarni o'zlashtirish, ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy shug'ullanish, nota bilan chalish, musiqa asarlarini tahlil qilish, o'z ustida mustaqil ishlash, musiqa san'atiga va musiqiy faoliyatga estetik munosabatni shakllantirish. Bunday yondashuv va musiqiy ijrochilik faoliyatlarining xilma xilligi cholg'u asbobini o'rganish asnosida ta'lim va tarbiya maqsadlarini uyg'unlikda ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'lib xizmat qilishiga ishonch hosil qiliddik.

Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida bolalarga ijrochilikni o'rgatish asosiy vazifa hisoblansada, mazkur faoliyat faqat ijrochilik bilan cheklanib qilmay kerak. Bu borada bolalarni musiqa san'atiga qiziqitirish, cholg'u ijrochiligini puxta egallashlarini rag'batlantirish, o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda mustaqil ishlash va ijodkorlikka yo'naltirish muhim pedagogik shartlardan hisoblanadi. Shunga ko'ra o'quvchilarni musiqiy faoliyatning o'zaro bog'liq har xil turlari va xilma-xil shakildagi ishlarni bajarishga jalb qilish samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Turli janr, shakl, uslubdagi asarlarni o'rganish, mashqlar, etyudlar, gammalar asosida texnik malakalarni o'stirish, notaga qarab chalish, varoqdan o'qish, ansamblida chalish, jo'r bo'lish, eshitib chalish, o'z bilm va malakalariga tayangan holda o'z ijrosini baholay olish shular jumlasidandir.

Cholg'u ijrochiligi bo'yicha mashg'ulotlar o'z xususiyatiga ko'ra har bir o'quvchi yoki havaskor bilan individual shug'ullanishni talab qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yaqin ijodiy muloqot o'rnatiladi, o'qituvchi o'quvchini imkoniyatlarini yaxshi o'rganib, unga ta'sir

ko'rsatishning turli usul va vositalarini qo'llashi, kamchiliklarni tuzatishi va o'zlashtirish dinamikasini izchil ravishda o'sib borishi uchun harakat qiladi.

Ma'lumotlarni tashkil etish va uning sifatli kechishi uchun izchillikka amal qilish ham eng muhim didaktik tamoyil sanaladi. O'quvchilarni bir mashg'ulotda olgan bilimni keyingi mashg'ulotda mustahkamlanishi, shakillanadigan ko'nikma va malakalar oldingi egallangan bilm va malakalarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.

Topshiriqlarni o'qituvchi rahbarligida, uning ko'rsatmalariga muvofiq, mustaqil bajarish orqali o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Kichik kuy, qo'shiqlarni mustaqil holda o'rganish va mashg'ulotlarda ijro etish mustaqil ishlash malakalarini shakillanganligini ko'rsatgichi hisoblanadi.

Cholg'u ijrochiligi guruhlaridagi o'quv repertuari ham mavzu, janr jihatdan xilma-xil bo'lishi hamda o'quvchilar uchun faqat ta'limiy jihatdan emas, balki badiiy va tarbiyaviy ta'sirchanlik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etishi kerak. Aytib o'tilgan talablar asosida ish tutish musiqiy estetik ta'lim va tarbiya masalalarini hal qilishda, o'quvchilarning ijrochilik malakalarini, badiiy fikrlash, mushohada qilish, musiqiy asarlarni saviyasini farqlash, ularga baho berish bilan birga musiqiy-nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi, pirovard natijada musiqiy-ta'limiy va musiqiy-tarbiyaviy vazifalarni o'zaro uyg'unlikda ijobiy yechimga erishish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch”.Toshkent. “Ma’naviyat”-2008 yil.

2.F.Jo’rayev. “Становление и развитие малового музыкально-эстетического воспитание учащейся молодежи в кружках узбекских инструментах”. Диссертация канд.педэ.наук. Ташкент-1979 г.

3.D. Rajabova. “Fortepiano mashg’ulotlari”. Toshkent. “O’qituvchi”-1994 yil.

4. A.Hasanov. “Musiq va tarbiya”. Toshkent. “O’qituvchi”-1993 yil.